

MAVLAVIY YO'LIDA HALOVAT ISTAB...

Quljanova To'lg'anoy Shodiyor qizi,

SamDU tayanch doktoranti

tulganoyquljanova@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'zbek zamonaviy she'riyati vakili Asqar Mahkam ijodida Sharq tasavvuf adabiyotining buyuk namoyandasi Jaloliddin Rumi falsafasining badiiy aks etishi, tasavvufiy-ma'rifiy g'oyalar bilan mushtarakligi tahlil qilinadi. Shoir she'rlarida aks etgan ilohiy ishq, nafsdan voz kechish, ruhiy kamolot va haqiqatga yetishish g'oyalari Rumiya ohanglar bilan uzviy bog'liqligi ayrim mulohazalar orqali ochib beriladi.

Kalit so'zlar. Asqar Mahkam, Rumi, tasavvuf, ilohiy ishq, ma'naviy kamolot, ruhiy uyg'onish, she'riyat.

MEVLÂNA YOLUNDA HUZUR ARAYARAK...

Kuljanova Tulganoy Shodiyor kizi,

Semerkand devlet universiteti doktora o'g'rencisi

Özet. Bu makalede, modern Özbek şiirinin temsilcisi Asqar Mahkam'ın eserlerinde Doğu tasavvuf edebiyatının büyük Şairi Mevlânâ Celaleddin Rumi'nin felsefesinin sanatsal yansımaları ve tasavvufi-eğitici fikirlerle olan ortak yönleri analiz edilmektedir. Şairin şiirlerinde yer alan ilahi aşk, nefsin terki, manevi olgunluk ve hakikate ulaşma gibi düşünceler, Rumiyan bir üslupla sıkı bir şekilde bağlantılı olduğu bazı düşünceler aracılığıyla ortaya konmaktadır.

Anahtar kelimeler. Asqar Mahkam, Rumi, tasavvuf, ilahi aşk, manevi olgunluk, ruhsal uyanış, şiir.

В ПОИСКАХ УМИРОТВОРЕНИЯ НА ПУТИ МАВЛАНЫ...

Кулжанова Тулганой Шодиёр кызы,

докторант Самаркандского государственного университета

Аннотация. В данной статье рассматривается художественное отражение философии великого представителя восточной суфийской литературы Джалаладдина Руми в творчестве современного узбекского поэта Аскара Махкама. Анализируются духовно-просветительские идеи в поэзии поэта, их связь с суфийским мировоззрением Руми. Через определённые рассуждения раскрывается, как темы божественной любви, отказа от эго, духовного совершенства и стремления к истине тесно переплетены с румийской интонацией.

Ключевые слова. Аскар Махкам, Руми, суфизм, божественная любовь, духовное совершенство, духовное пробуждение, поэзия.

SEEKING PEACE ON THE PATH OF MAWLANA...

Kulzhanova Tulganoy Shodiyor kizi,

basic doctoral student of Samarkand state university

Abstract. This article analyzes how the poetic works of modern Uzbek poet Asqar Mahkam reflect the philosophy of the great representative of Eastern Sufi literature, Jalaluddin Rumi. The spiritual-educational ideas expressed in Mahkam's poetry show deep affinity with Rumi's Sufi worldview. Through certain reflections, the article reveals how themes such as divine love,

renunciation of the ego, spiritual maturity, and the pursuit of truth are closely intertwined with Rumi's mystical tone.

Keywords. *Asqar Mahkam, Rumi, Sufism, divine love, spiritual perfection, spiritual awakening, poetry.*

Tasavvuf adabiyoti Sharq she'riyatining eng yuksak badiiy- falsafiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Uning yirik namoyandalaridan biri bo'lgan Jaloliddin Rumiy o'zining "Masnaviy"si, falsafiy risolalari va she'rlari orqali butun bashariyatga ruhiy saboq bergan buyuk mutasavvif shoirdir. Uning asarlari, xususan, "Masnaviy ma'naviy" asari tasavvuf falsafasining yuksak namunasi hisoblanadi. Rumiyning asarlarida inson va Xudoning o'zaro munosabati, ruhiy uyg'onish, ilohiy ishq falsafasi markaziy o'rinda turadi. Zamonaviy o'zbek adabiyotida Rumiy falsafasi bilan mushtarak g'oyalar ko'plab ijodkorlarda kuzatiladi. Jumladan, Asqar Mahkam ijodi rumiyona ruhda bitilgan she'rlari bilan ajralib turadi. Shoir she'rlarida inson va koinot, ishq va haqiqat, hayot va o'lim kabi abadiy mavzular an'anaviy va o'ziga xosda uslublarda yoritiladi.

Ushbu tadqiqotda shoirning "Mavlaviy yo'lida" nomli kichik so'zboshi bilan yozilgan she'rlari poetik va semantik jihatdan tahlil qilindi. Bu tahlillardan maqsad Asqar Mahkam ijodiga xos an'anaviylik va Jaloliddin Rumiy falsafasining o'zbek she'riyatiga ta'siri masalasiga oid ilmiy dalillarni asoslashdan iborat. Asqar Mahkam mohir tarjimon sifatida ko'plab durdona asarlarni o'zbek tiliga tarjima qilgan. Shoir Rumiyning dunyoga mashhur "Ma'naviy masnaviy" asari tarjimoni hamdir va bu o'z navbatida uning ijodiga katta ta'sir ko'rsatgan. Buni shoirning keyingi yillarda yaratilgan she'rlaridan ham sezish mumkin. Shoir Xurshid Davron bu haqda to'xtalib shunday deydi: "Masnaviy tarjimasining mashaqqati bejiz ketmadi, irfoniy shamol esa boshladi Asqarning she'rlarida. U boshqa odamga aylandi:

Xazonga yuz borgan terak tagida

Asqarni tark etdi Asqar umrbod... " [1,8 b.]

Quyida Asqar Mahkamning mavlaviyona ruhda yozilgan she'rlariga e'tibor qaratamiz. Shoirning "Zorlik" [1,145 b.] nomli she'ri "Mavlaviy yo'lida" nomli kichik so'zboshi bilan boshlanadi. "Zorlik" shoir nazdida ilohiy ishqqa tashnalik bo'lib, she'r "Zorlarga zormiz, Zorga xushtormiz" misralari bilan boshlanadi. Bu satrlar Rumiy falsafasida muhim bo'lgan "ishqdagi zorlik" (ya'ni, chin ishqda mag'lublik, taslim bo'lish, o'zligini yo'qotish) g'oyasiga ishora qiladi. Rumiy nazarida bu holat rabboniy ishqqa yetishish yo'lidagi go'zal holatdir. Asqar Mahkam ham buyuk mutasavvifni "zor" qilib qo'ygan ruhoni kuyga ishora qiladi, zohiran yo'qlikni ulug'laydi. Keyingi misralarda shoir "Garchi fanomiz tamom, Bor edik, bormiz..." deya Rumiy g'oyalaridagi fano bilan boqiylik o'rtasidagi munosabatga ishora qiladi. She'rda "fanomiz tamom" degan jumla orqali insonga xos o'tkinchilik, jismning yo'q bo'lish holati tan olinadi. Ammo "Bor edik, bormiz" deya davom etilganida, Rumiy singari yo'q bo'lish orqali Haq bilan bor bo'lish haqiqatini ilgari suradi. Bu Rumiyga oid "fano filloh, baqo billoh" falsafasidir. Islomiy kitoblarda bu quyidagicha izohlanadi: "Islom dinida baqo – Alloh sifatlaridan biri. Tasavvufda baqo Allohning boqiy do'sti bo'lib qolish uchun o'zidan voz kechish, barcha yaxshi sifatlarni o'zida mujassam qilish deb ham tushuniladi. Fano – o'zidagi barcha yomon sifatlarni yo'q qilish yo'li bilan Allohga yaqinlik hosil qilishlikdir. Tasavvufda solik fano maqomiga yetgach, Allohning haqligi va ulug'ligi to'g'risidagi fikru zikrga g'arq bo'lib, bu foni dunyodagi jamiki narsalarni unutib yuboradi. Bu maqom "fano filloh" deb ataladi." [3, 50 b.] "Keldi-ku savdolari, Dardima davolarim..." misrasida ham tasavvufiy qarashlar seziladi. Asqar Mahkam bu satrlarda dardni inkor qilmaydi, balki uni davoga aylantiradi. Bu Mavlaviy yo'lining asosiy tushunchalaridan biridir – ichki izzitirob va dard orqali inson o'zini anglaydi va ma'naviy yuksalishga erishadi. Rumiy she'riyatida dard insonga yo'l ko'rsatuvchi va uni Haqqa yaqinlashtiruvchi vosita sifatida tasvirlanadi.

Keyingi "Domaniga yetsa qo'l, O'lsak edik rozimiz..." misrasida shoir ishq tufayli yo'q bo'lishga rozi bo'lish, ya'ni tasavvufdagi ishqiy o'lim tushunchasini ifodalaydi. Rumiy ham ishq azobini tortmagan yurakni telba yo murdaning yuragi deb hisoblaydi. Yana bir o'rinda: "Ishq

o'ldiradi, ammo qayta tiriltiladi" deya ta'rif beradi. Asqar Mahkam ham "o'lsak edik rozimiz" misrasi orqali fano fillohga ishora qiladi.

Shoir "Shams qolib Shom aro, Yig'ladi Mavlolarim..." deya bevosita Jaloliddin Rumiyning Shams Tabriziyga bo'lgan ishqini eslatadi. Shams Jaloliddin Rumiyning tariqat yo'lidagi piri bo'lgan. Bu satrda Asqar Mahkam Rumiyning ilhom manbaiga ishora qiladi. Shams Rumiyni hayotida ilohiy sevgining ramzi bo'lsa, bu yerda ilhom manbai sifatida tasvirlanadi. Yuqoridagi misra she'riy jihatdan yuksak badiiylikka ega bo'lib, unda istiora, ramziylik, tashbeh, tajnis, tazod, san'atlari uyg'unlashgan. Shoir bu misrada ma'naviy yo'qotish, ruhiy zulmat, va ilohiy ilhomdan ajralish holatini qisqa, ammo chuqur obrazlar orqali ifoda qilgan.

Tashbeh. "Shams qolib Shom aro" – bu yerda "Shams" so'zi ikki xil ma'noga ega: Birinchisi, Shams Tabriziy – Rumiyning ruhiy yo'lboshchisi sifatida tarixiy shaxs; Ikkinchisi, Shams (quyosh) – yorug'lik manbai sifatida ramziy ma'noda. "Shom aro" – kech, zulmat, ayriliq va g'am ramzi. Shoir bu yerda quyoshning botishi orqali yo'lboshchining yo'qolishi, ilhomning yo'qolishi, ruhiy zulmatga tushish holatini tashbeh orqali ifoda qiladi.

Istiora (metafora). "Shams" – bu yerda bevosita quyosh emas, Shams Tabriziy obrazidir, ya'ni u metafora vositasi orqali ruhiy ustozni ifodalaydi. "Shom" –zulmat, yo'qotish, ayriliq metaforasi. "Yig'ladi Mavlolarim" – bu yerda "Mavlolarim" degani Mavlonaning o'zi yoki unga ergashuvchilar bo'lishi mumkin. "Yig'ladi" fe'li esa ichki iztirob, ruhiy og'riqni metafora orqali ifodalaydi. Shoir istiora orqali qalbidagi dard va ruhiy tushkunlik holatini ramziy tasvirlagan.

Tajnis. "Shams" – shaxs nomi sifatida (Shams Tabriziy), lekin arabcha "quyosh" degan lug'aviy ma'nosi ham mavjud. "Shom" – vaqt (kech) ma'nosida, lekin u ham tungi zulmat va ma'nan qorong'ulik ramzi sifatida ishlatilgan. Bu yerda fonetik jihatdan o'xshash so'zlar (Shams–Shom)da yashirin antiteza ham mavjud.

Ta'kidlaganimizdek, "Zorlik" she'rida Rumiya tafakkurda chuqur ildiz otgan, fano, ishq, dard, nafsni poklash va ruhiy uyg'unlash kabi tasavvufiy tushunchalar aks etgan. Bu she'r orqali shoir nafaqat o'z dardini bayon qiladi, balki tasavvufiy sayr (suluk)ning bosqichlarini ramziy tasvirlaydi. U Rumiyni singari ishqni haqiqiy mavjudlikka eltuvchi yo'l deb ko'rsatadi.

Uning "Mavlaviyona" [1,142 b.] she'ri ham rumiyona ruhda yozilgan bo'lib, unda ishq, sabr, fano va zikr kabi mavlaviya talimotining muhim unsurlari ko'zga tashlanadi.

Ishq va oshiqning ruhiy holati. She'rda takrorlanadigan "Keldi Zulayholarim" misrasi Rumiyni she'rlaridagi ishqiy va ilohiy muhabbatni eslatadi. Zulayho obrazi Yusuf payg'ambar bilan bog'liq bo'lib, u ilohiy ishq ramzi sifatida tushunilishi mumkin.

Ko'z yoshi va fano. "Tinmadi ko'z yoshlarim" misrasi tasavvufdagi "fano" tushunchasi, ya'ni insonning ishq yo'lida o'zini yo'qotishi, ruhiy poklanishi g'oyasini ifodalab kelmoqda.

Sabr va shukr. "Dog'larim, dog'larim" satri sabr va iztirob orqali ilohiy haqiqatga erishish g'oyasini aks ettiradi. Rumiyni she'rlarida ham ishq yo'lida sabr qilish, iztirob chekish, oxir-oqibat bu yo'l haqiqatga yetaklashi haqida so'z boradi.

Ruhiy yuksalish va kamolot. "Oqdi qaro qonlarim" misrasi ichki poklanish va kamolotga erishish jarayonini ifodalashi mumkin. Tasavvufda inson o'z nafsidan voz kechib, ruhiy yuksalishga intiladi.

Zikr va takror. She'rda takrorlangan "Ohlarim, ohlarim" misrasi rumiyona zikr elementini eslatadi. Bu takroriy satrlar oshiq qalbidagi g'am, ishq, iltijo va shavqni chuqurroq ifodalashga xizmat qilgan. Tasavvufda Alloh ishqiga zikr orqali erishish g'oyasi mavjud. Bundan tashqari she'rdagi o'ziga xos ritm va musiqiylik rumiyona samo raqslarini eslatadi. She'r mazmunan ma'shuq (sevikli) obrazi orqali ilohiy ishq, tasavvufiy xumorlik, va ma'naviy hushyorlik motivlarini ifodalaydi. Zulayholar, shahanshohlar, mohlar – bular barchasi majoziy obrazlar bo'lib, ko'ngil orqali ilohiy haqiqatga eltuvchi yo'l sifatida tasvirlanadi.

Shoir har bir misrada yangi bir obrazni eslatib, har birini ichki iztirob bilan sanab o'tadi. Har banddan keyin takror san'atidan keng foydalangan va "Ohlarim, ohlarim" jumlasining takrorlanishi yurak og'rig'i, muhabbat xumorining chuqurligini ifodalaydi. "Keldi manim mohlarim" jumlasida iltifot san'atidan foydalanib, o'z shaxsiy tuyg'ulari orqali butun bir tasavvufiy obrazni

mujassamlashtiradi – shaxsiy ma'shuq orqali ilohiy ishqni anglatadi. "Ko'ngli qaro yorlarim" misrasida yashirin tazod bo'lib, dunyoga muhabbatli oshiqlar nazarda tutilgan. Qalb ko'rliigi va haqiqatga yo'l topish o'rtasidagi ziddiyat ifodalanadi. "Sochi sumansolarim" misrasida tamsildan foydalanib, sevgili obrazida ilohiy haqiqatni tasvirlaydi. Tasavvufda zulf Haqning tajalliyoti ramzi hisoblanadi. She'rdagi ohangda ham Rumiya hamohanglik seziladi. Takroriy ifodalar orqali zikrga o'xshash ruhiy holat hosil qilinadi, badiiy san'atlar esa bu ruhiy kechinmalarni yanada teranlashtiradi.

Asqar Mahkamning "Izlangiz" [1,146 b.] she'ri ham chuqur ma'naviy-falsafiy mazmun bilan yo'g'rilgan bo'lib, rumiyona ruhdagi g'oyalarni o'zida mujassam etadi. Ushbu she'r ham "Mavlaviy yo'lida" deb nomlangan so'zboshi bilan boshlanadi. Bu bevosita Jaloliddin Rumiya g'oyalari va tasavvufiy yo'nalishiga ishora qiladi. Quyida ushbu she'ning Rumiya g'oyalariga xos asosiy jihatlari tahlil qilinadi:

"Izlash" g'oyasi – Haqiqatga yetishish yo'li. She'ning har bir bandi "Izlangiz, ey ahl..." jumlasini bilan boshlanadi. Bu esa Rumiya tez-tez uchraydigan "talab" – izlanish, haqiqatni izlab topish motivini eslatadi. Rumiya uchun inson ruhiy kamolot sari harakatda bo'lishi, ichki sayr (suluk)ga chiqishi zarur. Asqar Mahkam ham bu yerda nafaqat jismoniy, balki ma'naviy izlanishni – vafoni, dilni, ruhni, niyatni, fanoni izlash zarurligini ta'kidlaydi. "Ey ahl..." jumlasini esa muayyan ruhiy holatdagi kishilarga murojaatdir (ahlil oh, ahlil dil, ahlil xos, ahlil roh, ahlil xok, ahlil g'am, ahlil shum, ahlil bad, ahlil sharr, ahlil jon, ahlil xob, ahlil xayr, ahlil shom, ahlil joh...). She'rda bu guruhlar "qayda?" deb savol berishadi – bu savol orqali shoir bizni botiniy haqiqatlarni mushohada qilishga undaydi. Bu Rumiya haqiqat ko'rinmaydi, yurak orqali seziladi degan fikrini eslatadi. She'rda ishlatilgan tasavvufiy atamalar (fano, ruh, oh, xok, jon, joh roh...) Rumiya bo'lgani kabi ma'naviy yo'lni bosib o'tish bosqichlariga ishora qiladi. "Fano" – nafsdan voz kechish va Haq bilan yo'g'rilish; "ruh" – ilohiy asl; "oxir xitob" – ilohiy uchrashuv. Rumiya bu kabi tushunchalarni ko'p bora tazkiya va irfon yo'li orqali tasvirlaydi. Tasavvufda ruhiy uyg'onish qarama-qarshiliklar asosida shakllanadi. Ushbu she'rda ham "Ahlil shum – ahlil qudum", "ahlil shar – mulki saqar" kabi satrlarda yovuzlik bilan yaxshilik, do'zax bilan jannat qarama-qarshi qo'yilgan. Bu qarama-qarshiliklar orqali shoir bizni tanlov qilishga, o'zligimizni anglashga undaydi. Rumiya ham zohiriy yomonliklar ortida ilohiy hikmat borligini ko'rsatishga urinadi.

"Izlangiz" she'rdagi ruhiy tashnalik, ichki iztirob va Haqni izlash holati Rumiya ruboiy va masnaviylarida ko'p uchraydi. Unga ko'ra inson hayotining maqsadi – Haqni izlash va U bilan "visol"ga yetishishdir. Asqar Mahkam ham bu she'rda ana shunday haroratli izlanishni tasvirlaydi. Qaysidir ma'noda, bu she'r ruhiy uyg'onishga, ma'naviy yuksalishga, yo'qotilgan ma'naviyatni qayta topishga chaqiruvdir.

Umuman olganda, Rumiya falsafasi Asqar Mahkam ijodiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan va buni quyidagicha tasniflash mumkin:

Birinchidan, shoir ijodida rumiyona falsafiy qarashlar va ruhiy izlanishlar kuchaygan.

Ikkinchidan, Rumiya ijodiga xos tasavvufiy obrazlar va timsollarni qo'llash kengaygan.

Uchinchidan, Rumiya xos til va uslub shoir ijodi bilan uyg'unlashgan. Shoir she'rlarida ham sodda, ammo chuqur mazmunli, falsafiy fikrlarni beruvchi ohang paydo bo'lgan.

To'rtinchidan, shoir Rumiya g'oyalariga hamohang shaxsiy poetik konsepsiya shakllangan. Asqar Mahkam ham o'z she'riyatida insonning bu dunyodagi maqsadi – ma'naviy yetuklikka erishish g'oyasini ilgari sura boshladi.

Albatta, Jaloliddin Rumiya ijodi o'zidan keyingi ijob ahlilga ma'naviy xazina sifatida xizmat qilib kelmoqda va bu xazina zamonaviy o'zbek adabiyoti uchun ham bebaho merosdir. Shoir Asqar Mahkam ham bu ma'naviy merosdan bebahra qolmadi, rumiyona ohanglar uning ijodiga irfoniyl ruhni olib kirdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Asqar Maḥkam. Вахдат куйи. - Тошкент: "Нурафшон бусинесс", 2021, 366-б.
2. Бадиий адабиёт ва тасаввуф тимсоллари.—Тошкент, 2010, 198–б.

3. Buriyeva, F. (2024). Zamonaviy she'riyatda diniy-tasavvufiy mavzu va timsollar an'anaviyligi. *Miasto Przyszłości*, 53, 1347-1350.
4. Ислом энциклопедияси. "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" Давлат илмий нашриёти, 2004, 357-б. https://namdu.uz/media/Books/pdf/2024/08/04/NamDU-ARM-12968-Islom_ensilopediyasi.pdf
5. Румий, Жалолиддин. Маснавий Маънавий. Куллиёт.- Тошкент: "Шарқ",
6. 1999, 368-б.
7. Yoqubov I. (2025). Uzbek spelling rules: history, principles, and modern applications. *pedagogika, psixologiya va ijtimoiy tadqiqotlar jurnali*, 4(2), 20-26.